

**BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARNING KASBIY O‘ZINI-O‘ZI  
TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Zaylobidinova.D.G***Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida pedagogik faoliyatda o‘z ustida ishlash qobiliyatiga ta‘sir etuvchi psixologik asoslar, ijtimoiy psixologik determinantlari, o‘qituvchilarda shakllangan kasbiy motivlar, tolerantlik va empatik qobiliyatlar kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена теме социально-психологических аспектов воспитания будущих учителей иностранного языка. Также в тексте статьи освещаются такие вопросы, как психологические основы, социально-психологические детерминанты, профессиональные мотивации, формируемые у педагогов, толерантность и эмпатические способности, влияющие на способность работать над собой в педагогической деятельности.*

**Annotation:** *This article is devoted to the topic of socio-psychological aspects of educating future foreign language teachers. Also, in the text of the article, issues such as psychological foundations, social psychological determinants, professional motives formed in teachers, tolerance and empathic abilities are widely covered.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘qituvchi, ta‘lim, pedagogik faoliyat, kasbiy, o‘z ustida ishlash, tolerantlik, empatik qobiliyat, muvaffaqiyat motivlari, bilim, malaka, kasb, o‘z-o‘zini rivojlantirish.*

**Ключевые слова:** *Учитель, образование, педагогическая деятельность, профессионал, работа над собой, толерантность, эмпатическая способность, мотивы успеха, знания, компетентность, профессия, саморазвитие.*

**Key words:** *Teacher, education, pedagogical activity, professional, work on oneself, tolerance, empathic ability, success motives, knowledge, competence, profession, self-development.*

Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga nazariy, amaliy, metodik yondashish hamda maxsus tayyorlashning shartlari va uning metodikalarini takomillashtirish, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining muvaffaqiyati uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, mustaqil ishlay olish qobiliyati kabilarni aniqlash masalalari hozirgi zamon asosiy muammosidir. Shu bois, muvaffaqiyatli, ijodkor o‘qituvchilarga xos o‘z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash va uni baholash ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, uni jamiyat talablariga integratsiyalash, shuningdek, o‘z ustida ishlash qobiliyatini tarbiyalashning psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etishga qaratilgan yangi psixodiagnostik metodikalarni joriy etish, ilm-fan taraqqiyotida talaba yoshlar faolligini oshirish hamda ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi, ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, o‘z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etish ishlarida avvalo, ilg‘or psixodiagnostik metodikalar va savolnomalarning rolini oshirish,

muammoga oid metodik ta'minotni modernizatsiyalash, yangi innovatsion yondashuvlarga asoslangan mahalliy metodikalar va shaxs so'rovnomalarini joriy etish va uni yangi sifat darajasiga ko'tarishni talab etmoqda. O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun xam zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat protsessida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi. Pedagogik vazifasi-faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim ahloqiy prinsplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarini rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Eng avvalo o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muxabbati yuksak o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, xech qanday kamchiliklarga yo'l ko'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi. Ma'lumki, insoniyat kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o'z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy o'z-o'zini tarbiyalashni o'z oldiga sharafli vazifa qilib belgilashi lozim. Olimlarning takidlashicha: "Pedagog o'zida insoniyat idealini shakllantirishi lozim"-degan hulosaga kelingan. Aynan insoniyatning go'zal fazilatlarini o'zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o'z ustida ishlash tufayli kundan-kunga o'sib borishi mumkin. O'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, hatti-harakatlarini o'ylashga o'rgatadi. O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O'z-o'zini baholash o'qituvchini, o'z imkoniyatlarini baholashda, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi. O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi. Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumiyashtirishga harakat qiladi. Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarini kamol toptirsa, uning obro'si, mavqei ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo'ladi. O'qituvchi o'zida kuzatuvchanlikni, g'amho'rlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'htatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham so'nadi, deb haqqoniy aytganlar. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish motivatsiyasi-bu mutaxassislarining kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish jarayonini belgilaydigan, yo'naltiradigan va tartibga soladigan barcha motivlar va shart-sharoitlar majmuidir. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish motivini belgilaydigan munosabatlar tizimi uchta mezonni o'z ichiga oladi: 1) shaxsning o'z kasbiy faoliyatiga munosabatini; 2) o'ziga mutaxassis sifatida munosabatini; 3) kasbiy sohada o'zini takomillashtirishga bo'lgan

munosabatini. Muammoga doir, nazariy ma'lumotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga quyidagi omillar to'siq bo'ladi: O'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini bilmaslik; Kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish jarayonining mazmuni, tuzilishi va mantig'ini bilmaslik; O'z-o'zini rivojlantirishning asosiy usullari va metodlarini bilishning yetishmasligi; Ta'limga psixologik tayyor bo'lmaslik, yangilikdan qo'rqish, tanqid qilish istagining yo'qligi va shaxsning rivojlanishidagi qiyinchiliklar; Shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishning aniq vazifalarini hal qilishda tajribaning etishmasligi. Yuqoridagi omillarni bartaraf etishning yana bir muhim sharti bu o'qituvchilar faoliyatini rag'batlantirishdir. Chunki, tadqiqotlarda o'z ishiga munosabat bildirmaydigan odam vaqt o'tishi bilan unga qiziqishni yo'qotishi isbotlangan. O'z ustida ishlash faoliyatini yanada kuchaytirishning ikki usuli mavjud ya'ni ijobiy (mukofot) va salbiy (jazo).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta'limda faol usullardan foydalanish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy sharti bo'lib, ijobiy ko'plab natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, bunday shart-sharoit bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarni faol o'quv-bilish faoliyatiga jalb qilish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga keng imkon beradi. Oxir-oqibat sohaga oid barcha ma'lumotlar talabalarning shaxsiy bilimlariga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'oziev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. -T.: Ukituvchi, 1997. - 197 b. B.Qodirov "Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis" Toshkent, 2001. - 36 b.
2. Abdusmatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko'p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*
3. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.
4. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
5. Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352-363.
6. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW
7. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.
8. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 874-879.

9. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 476-479.

10. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(2), 117-123.

11. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. European journal of education and applied psychology, (1), 3-6.